Yuqoridagi aforizmlarni o’rganish yoshlarga maslahat, yo’l-yo’riq yoki maslahat, hayotiy xulosalar olish imkonini beradi. Umuman olganda, har bir hikmatli so’z xalq donishmandligi ifodasi, ko’p yillik hayotiy tajribaning umumlashmasidir. Hikmatli so’zlarning tilda ko’rinishi ularni yaratgan xalqning tarixi bilan belgilanadi. Ko’pgina aforizmlar qadim zamonlarda yaratilgan va hozirgacha ularni yaratuvchisi bo’lgan odamlar bilan yashaydi. Aforizmlar mashhur bo’lib, avloddan-avlodga o’tib, asrlar davomida yashaydi. Ilmiy izlanishlar jarayonida ko’pchilik aforizmlar bir vaqtning o’zida ikkita ma’noni: to’g’ridan-to’g’ri va ko’chma ma’noni o’z ichiga olishini ham aniqladik, shuning uchun biz ba’zan bir qarashdayoq aforizmlarni tushunishga qiynalib qolamiz. Asosan, aforizmlarning majoziy ma’nosi yoki ko’zda tutilgan ma’nosi odatda metafora, metonimiya, giperbola, o’xshatish yoki metafora kabi qimmat vositalar orqali yetkaziladi. Aforizm kelajak avlod uchun ajralmasdir. Kim bu aforizmlarni o’qib tushunsa, har tomonlama mukammal bo’ladi.

Turli xalqlar olamning lisoniy manzarasini tadqiq qila turib, ularning lisoniy qobiliyatlari semantik tuzilishiga, leksik informatsiyani saqlash mexanizmiga duch kelamiz. Lisoniy shaxsning dunyoni verbal obyektivlashtirish orqasida nima yotganini chuqurroq anglashi uchun shubhasiz his-tuyg’u obrazlarining dunyosini tadqiq qilish lozim bo’ladi. U konseptning “obrazli”, metaforik komponentini tashkil etadi. Buning uchun XVI-XX asrlar ingliz va o’zbek mualliflarining poetik matnlari, mashhur mutafakkirlarning hikmatli so’zlari (aforizmlar), shuningdek, kombinator lug’atlarning maqolalaridan foydalanildi. Shunday qilib, “do’slik” o’zining metaforik ifodalanishida qanday ko’rinishga ega bo’lishini aniqlashga harakat qilamiz, do’slik abstrakt tushunchasi hissiyotli dunyo predmetlariga qiyos qilinadi. Eng avvalo, ta’kidlash kerakki, bu konsept ko’p hollarda o’zbek matnida, ingliz tilida ham bunday munosabatlar subyekti orqali taqdim etiladi, metaforistik ko’chirish

nisbatan past chastotali bo'ladi. Aniqrog'i, ko'pchilik shunday hollarda aynan "do'st" / "friend" leksemasi yangi konseptlarga erishishga yordam beradigan universal tushunchalar sifatida qo'llanadi.

Inson tafakkuridagi etnik aksiologiyaning bazaviy kategoriyalaridan biri sifatida "do'stlik" konsepti boshqa mental mohiyatlar qatorida turadi, ular "ko'rinmas dunyo"ga etnosning ma'naviy qadriyatlarini yo'naltiradi. Bunday semantik tuzilmalar dunyo lisoniy tavsifining shakllanishida hal qiluvchi omil hisoblanadi. Demak, tilning madaniy spetsifikasini tushunish uchun, eng avvalo, unga tegishli bo'lgan eng muhim jihatlarni tahlil qilish lozim, bular qatoriga so'zsiz "do'stlik" ham kiradi. Uning etnosspesifik xususiyatlarini tadqiq qilishga qiziqish lingvomadaniyat doirasida gumanitar belgi paradigmasining antropotsentrik roli tufayli paydo bo'ladi. Lekin, "do'stlik" konsepti lingvistik tafakkurda yetarli darajada tadqiq qilinmagan. Ba'zi bir masalalar P.Florenskiy, A.Vejbiskaya, N.Ufimseva, shuningdek, T.Pshenina, N.Shaymerdinova, A.Smironov, O.Lukashkovalarning ishlarida ko'rib chiqilgan. O'zbek tilshunosligida esa bu masala bo'yicha hali keng miqyosda maxsus tadqiqotlar olib boril-ganicha yo'q.

Xullas, o'zbek matnlarida sodiq va sadoqatlilik do'stlikning oliy xususiyati deb ifodalanadi. Bu muqaddas xususiyatga ega bo'lgan do'stni hamisha eslaydilar, uni hurmat qiladilar, uning sharafiga va xotirasiga bag'ishlab yaxshi amallar qiladilar / do smth for friendships sake. Ingliz poetik kontekstida bunday misollar deyarli kuzatilmaydi, lug'atda uchraydigan so'z birikmalari "holly / sacred friendship", "to swear eternal friendship" bundan istisno. U yoki bu holatda ham do'stlik shunday qadriyatki, uni asraydilar / value, uni saqlaydilar, avaylaydilar qadrlaydilar, yo'qotishdan qo'rqadilar / value, cherish, afraid to lose it, agar yo'qotsalar, achchiq qayg'uradilar va ko'pincha boshqalarni ayblaydilar. Bu qimmatbaho predmetni hamma joydan izlaydilar / look for, seek agar uni senga taklif etsalar / offer, exland, buni bemalol topsa bo'ladi / find – topmoq, gain – olmoq. Ba'zan do'stlikka kurashib erishadilar / win. Har qanday qimmatbaho narsada bo'lgani kabi do'stlikning ham baxti bor, lekin uni amalda aniqlab bo'lmaydi: "U do'st o'zining sadoqatliligi bilan bahosini oshirdi, / Butun dunyo oldida uning qadr-qiymatini rad etmaslik uchun" to set a valuation on friendship. Oldindan aytish mumkinki do'stlik qimmatbaho tuyg'u, haqiqiy, chin / true, lekin u qalbaki / false ham bo'lishi mumkin. Shubhasiz, har ikkala holatda ham subyekt qandaydir qimmatbaho hisoblanadi. Ingliz lisoniy tafakkuri uchun esa uning kelib chiqishini ta'kidlab o'tish xarakterlidir. U vaqt o'tishi bilan yaqqolroq bo'ladi: to make / form / knit / cement / strike up / cultivate friendship kabilar (Vejbiskaya A. 2001, str. 88.).


Do'stlikni jonlashtirish hollari ham tez-tez uchrab turadi. Ana o'shanda u subyekt til sohibiga xos bo'lgan xususiyatlarga ega bo'ladi. Leksikografik tahlil, shuningdek, poetik matnlar tahlili ko'rsatadiki, do'stlik tug'ilishi, o'sishi, voyaga yetishi, yashashi va nihoyat, o'lishi mumkin. Masalan, Do'stlik ipini uzma, ulasang tuguni qolar. Quyosh havoni isitsa do'stlik qalbni isitadi; Daraxtni tomiri saqlaydi. Odamni do'sti saqlaydi. Bir-birlarining arziyas kamchiliklarini kechira olgan kishilargina chinakam do'stlik iplari bilan bog'lana oladilar; Qayerda tenglikka putur yetsa u yerda do'stlik ham bo'lmaydi; Yoshlikda tug'ilgan do'stlik ajralmas va lazzatlidir, u ham hech qachon o'lmaydi" Do'stdan ajralmaslikning yagona yo'li uni sotmaslikdir. Ingliz tilida esa antropomorf metaforalar ham oz miqdorni tashkil etadi: friendship tug'iladi (be born), o'sadi (grow), rivojlanadi (develop), o'ladi (die); shunday bo'lsa ham u ishlaydi (work), azob chekadi (suffer), u mahkum etilgan bo'lishi mumkin (be doomed) va uni oldinga surish, oshirish mumkin (promote). Ingliz tilida do'stlikni inson tanasi bilan ifodalanadigan biron – bir o'xshatma yo'q. Kamdan kam hollarda do'stlik subyektning jismoniy qismi ekanligini aytib o'tiladi: "When on by one der friends have gone, / And loft our bosoms bleeding". Do'stlik kuchli (strong), samimiy (cordial), ehtirosli (passionate), vijdonli (honest), sog'lom (healthy) bo'lishi mumkin. Ba'zan uning kasalliklari haqida eslatishni ham uchratish mumkin.

Xulosa. Shunday qilib, gapirganda, talabalar ma'lumotni etkazish yoki tushuntirish, ma'qullash yoki qoralash, ishontirish, isbotlash imkoniyatiga ega bo'lishlari kerak. Yozishda talabalarining o'zlarining va boshqalarning fikrlarini tezda tuzatish qobiliyati zarur; o'qilganidan yozish, materialni qayta ishlash; nutqning rejasini yoki tezislarni yozish. O'qishda o'quvchilarning gazeta va jurnal maqolalarini, o'rtacha murakkablikdagi badiiy asarni tez o'qish qobiliyati muhim ahamiyatga ega.

Tinglash jonli muloqotda nutqni normal sur'atda tushunish qobiliyatini, shuningdek, televideniye radio dasturlarining ma'nosini talab qilinadi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yhati.

1. AKHMEDOVA, G. Y. (2022). VISUAL AIDS IN THE PROCESS OF LEARNING ENGLISH. In Школа молодых новаторов (pp. 237-240).
2. Mustafo, O., & Gulizebo, A. (2021). USING WEBINARS IN LEARNING FOREIGN LANGUAGES. DEVELOPMENT ISSUES OF INNOVATIVE ECONOMY IN THE AGRICULTURAL SECTOR, 398.
3. AKHMEDOVA, G. Y. (2021). Motivation and its role in teaching a foreign language. In Молодежь и наука: шаг к успеху (pp. 292-294).
4. Yakubovna, A. G. (2022). TEACHING BUSINESS IDIOMS IN THE STUDY OF THE ENGLISH LANGUAGE. Current Issues of Bio Economics and Digitalization in the Sustainable Development of Regions, 294-298.



Quvvatov Rahmatulla Xikmatillayevich
Termiz Iqtisodiyot va Servis universiteti

INGLIZ VA O'ZBEK TILLARIDA AFORIZMLARNING O'RGANILISHI



<http://dx.doi.org/10.26739/2181-0850-2024-1-3>

ANNOTATSIYA

Xalq og'zaki ijodi mahsuli bo'lgan maqollarni o'rganishga oid ilmiy izlanishlar xorijda amalga oshirilgani kabi yurtimizda ham shunday qimmatli tadqiqotlar amalga oshirilgan. XX asrning 90-yillarida esa professor B. Sarimsoqov aforizmlarni maqol, matal, topishmoq, qanotli so'z va iboralar, paradokslar, epigrammalar, xokkular, gnomalar, fard va muammolar mansub bo'lgan yangi – to'rtinchi adabiy turga mansub, deb ko'rsatadi. Bu adabiy tur esa paremiya deb nomlanadi.

Kalit so'zlar: aforizm, adabiy, maqol, gnoma, epigramma.

Кувватов Рахматулла Хикматиллаевич
Термезский университет экономики и сервиса

ИЗУЧЕНИЕ АФОРИЗМОВ НА АНГЛИЙСКОМ И УЗБЕКСКОМ ЯЗЫКАХ

АННОТАЦИЯ

Научные исследования по изучению пословиц, являющихся продуктом фольклора, проводятся за рубежом, а также ценные исследования проведены в нашей стране. В 90-е годы XX века профессор Б. Саримсаков считал афоризмы принадлежащими к новому - четвертому литературному типу, к которому относятся пословицы, поговорки, загадки, крылатые слова и словосочетания, парадоксы, эпиграммы, анекдоты, гномы, личности и проблемы. . Этот литературный тип называется паремия.

Ключевые слова: афоризм, литературный, пословица, гном, эпиграмма.

Quvvatov Rahmatulla Khikmatillayevych
Termiz University of Economics and Service

STUDY OF APHORISMS IN ENGLISH AND UZBEK LANGUAGES

ABSTRACT

Scientific research on the study of proverbs, which are the product of folklore, has been carried out abroad, as well as valuable research has been carried out in our country. In the 90s of the 20th century, Professor B. Sarimsakov considered aphorisms as belonging to a new - fourth literary type, which includes proverbs, sayings, riddles, winged words and phrases, paradoxes, epigrams, jokes, gnomes, individuals and problems. shows. This literary type is called paremia.

Keywords: aphorism, literary, proverb, gnome, epigram.

Ingliz xalqi madaniyatida yaxshilik konsepti o'zbek xalqi madaniyati kabi beminnatlik, sirlilik tamoyillariga asoslangan. Beauty endures only for as long as it can be seen; goodness, beautiful today, will remain so tomorrow- Go'zallik faqat ko'zga ko'rinadigan vaqtgacha davom etadi, yaxshilik esa bugun ham go'zal, ertaga ham shunday bo'lib qolaveradi. Keltirilgan aforizmda insondagi va moddiy jismlardagi chiroy, go'zallik va latofat vaqtincha ekanligi va vaqt o'tishi bilan asl go'zalligini yo'qotishi va aksincha yaxshilik esa bugun ham ertaga ham boqiy qolishi ya'ni insonning o'zgalarga qilgan yaxshiligi ularning qalbida, jamiyatning yuragida umrbod yashashi ta'kidlangan.

We must not wait for the good in us to be brought out; we must carry it out. Biz ichimizdagi yaxshilikni yuzaga chiqishini kutmasligimiz kerak; biz buni amalga oshirishimiz kerak. Hamma insonning ich ichida odamlarga yaxshilik qilish, og'irini yengil qilish kabi yaxshi niyatlari bo'lishi tabiiy albatta biroq niyatni o'zi bilan ish bitmasligi bu niyatlarni amalda ko'rsatish kerakligi muhim hisoblanadi. It is better to be known as a good man than a great one, for greatness is an assessment of mortals, goodness is a gift of God-Buyuk bo'lib tanilgandan ko'ra yaxshi odam sifatida tanilgan yaxshiroqdir, chunki buyuklik-bu insonlarning baholashi, yaxshilik esa Xudoning in'omidir.

Buyuklik har kimga ham nasib qilishi mumkin. Tarixdagi barcha buyuk insonlar ham yaxshiliklari uchun buyuk bo'lgan emas. Aksariyati o'zining zulm va yovuzliklari bilan, daxshatli ixtirolari bilan nom qozongani ko'pchilikka ma'lum. Biroq yaxshi inson tarixda nom qozonmasada uning atrofdagilari u bu dunyodan o'tgach ham uni doim yaxshi xotiralar bilan yodga olishadi. Yuqoridagi aforizmlar ingliz lisoniy tasvirida "yaxshilik" konseptini ifodalashga xizmat qiladi. Ingliz aforizmlari orasida yomonlikni qoralovchi bir qancha namunalar ham bo'lib, ingliz xalqi madaniyatida "yomonlik" konseptini ifodalashga xizmat qiladi. Evil is committed without effort, naturally, fatally; goodness is always the product of some art - Yomonlik, tabiiy ravishda, say-harakatlarsiz amalga oshiriladi; ezgulik har doim qandaydir san'at mahsulidir. Bizning loqaydligimiz hamda e'tiborsizligimiz ko'p kulfatlarga sabab bo'ladi garchi biz buni istamasakda, biroq yaxshilik qilishga harakat qilmasak hech qanday ezgu amal yuzaga chiqmaydi, inglizlar tabiri bilan aytganda: Active evil is better than passive good-harakatsiz yaxshilikdan harakatdagi yovuzlik afzal. Only a writer who has the sense of evil can make goodness readable.

Yomonlikni his qiladigan yozuvchigina yaxshilikni o'qiy oladigan qiladi. Inson yomonlikning qurboni bo'lmasa yaxshilikning qadrini bilmaydi. Ya'ni qiyinchilik va og'ir sharoitlarni boshidan o'tkazgan insonlarga ko'rsatilgan yaxshilik, keraksiz paytlarda berilgan ko'makdan afzaldir va shunday lahzalarda inson yaxshilikning tub mohiyatini va ahamiyatini anglab yetadi hamda o'zgalarga ham xuddi shunday yaxshiliklar qilishga qodir bo'ladi. Evil is unspectacular and always human. And shares our bed and eats at our own table- Yovuzlik his etib bo'lmas va doim insonlar bilan birga. U biz bilan birga uxlaydi va biz bilan bir dasturxon atrofida ovqatlanadi. The resolution to avoid an evil is seldom framed till the evil is so far advanced as to make avoidance impossible-Yomonlikdan saqlanish uchun qaror kamdan-kam hollarda yovuzlik rivojlanib undan qochish imkonsiz bo'lmaguncha tuzilmaydi. Inson zoti shundayki ba'zi hollarda toki "boshi devorga urilmaguncha" ketayotgan noto'g'ri yo'lidan qaytmaydi va oqibat kech bo'lganda qilgan ishlari yomon ekanligini anglab yetadi. Eng yomon tomoni shundaki, aksariyat hollarda insonlar ketayotgan yo'li noto'g'riligini bilishadi biroq vaqtida o'zlarini tiymaydilar. Bu hikmatli gap o'zbek tilidagi "So'ngi pushaymon o'zingga dushman" maqoliga mos keladi. Ingliz aforizmlarida shuningdek, insonni faqat yaxshi bo'lishi kifoya emasligi, agar u yaxshi amallar qilmasa uning yomondan farqi yo'qligi ham qator hikmatli so'zlarida berilgan. Misol uchun, For evil to succeed it is sufficient that good men do nothing- Yomonlikning muvaffaqiyati uchun yaxshi odamlarning hech narsa qilmasligi kifoya. Keltirilgan aforizmda yaxshi insonlarning hech qanday ezgu ishlar qilmasligi yovuzlikning g'alabasi ekanligi ta'kidlab o'tilgan. Yana bir misolda insonning yomon xislatlardan biri tanqid ostiga olingan:

One of the devices of the evil inclination is to turn our attention away from the present by heightening our anticipation of the future- Yomonlikka moyillikning vositalaridan biri kelajakka bo'lgan intizomni, e'tiborni kuchaytirish orqali e'tiborimizni hozirgi zamondan uzoqlashtirishdir ya'ni odamlar yaxshi kelajakni orzu qilib hozirgi hayotida ko'plab yomonliklarga qo'l urmoqda. Hozirgi holatidan mamnun bo'lmay kelajakda yaxshi hayot kechirish maqsadida turli jinoyatlarga,

korruptsiya holatlariga qo'l urayotganlar talaygina. Ingliz rohiblaridan biri Rohib Avgustin yaxshi va yomon insonlarga quyidagicha ta'rif berib, ular orasidagi farqni mohirona tasvirlagan.

"The good man is free, even if he is a slave. The evil man is a slave, even if he is a king". - Yaxshi inson ozoddir garchi u qul bo'lsa ham. Yomon inson quldir garchi u shoh bo'lsa ham. Evil so'zi ham ot ham sifat so'z turkumi bo'lib kelishi mumkin. Ushbu aforizmda evil sifat so'z turkumida kelib yomon, yovuz kabi ma'nolarni beryapti. Aksariyat hollarda esa evil ot so'z turkumida kelib, yovuzlik, yomonlik kabi ma'nolarni anglatadi. Misol uchun, Evil requires the sanction of the victim-Yomonlik qurbonining tasdig'ini talab qiladi. Ushbu misolda keltirilishicha, yomonlik o'z o'zidan bo'lib qolmaydi ya'ni insonni o'zi unga xohish, yoki tasdiq bildirmasa yovuzlik aslo sodir bo'lmaydi. Yomonlikdan o'zini tiyish uchun insondan kuchli iroda va sabr talab etiladi.

Xorijiy tillarni o'qitishda vizual vositalar o'rganilayotgan til mamlakatiga xos materialni tasvirlash uchun, muloqot qilishga bevosita imkon yaratadigan vaziyatlarni taqdim etish uchun ishlatiladi. Hech shubha yo'qki, real manbalar talabalarga ma'lum bo'lmagan voqelikning rang-barang tasvirini, shuningdek, xorijiy tillardagi iboralarni tushunishni osonlashtiradigan illyustratsiyalarni berishga imkon beradi[1]. Xorijiy tillarni o'rganish jarayonida autentik (haqiqiy) matnlarni o'qish va tahlil qilish talabalarga madaniyatning o'ziga xos xususiyatlari bilan tanishish, xalq mentalitetining milliylligini tushunish, o'z mamlakatlari va o'rganilayotgan til mamlakatlarining turmush tarzi, urf-odatlar va an'alarini taqqoslashga, bu esa o'z navbatida tanqidiy fikrlash mahoratini oshirishga imkon beradi.

Zamonaviy dinamik dunyoda ko'plab hayotiy jarayonlarning tezlashishi va integratsiyasi ma'lumotlarning tez o'sishini qayd etmoqda. Bunday vaziyatda aforizmlarni o'rganish jarayoni va ulardan xorijiy tillarini o'qitishda amaliy foydalanish imkoniyatlari jadal rivojlanib, bu jarayon jamiyatning rivojlanishi va ilmiy-texnik taraqqiyot bilan bevosita bog'liqdir. Aforizm tilning asosiy tarkibiy qismlaridan biri bo'lib, eng mazmunli nutq vositasidir. Aforistik birliklarni o'rganishning eng muhim jihatlaridan biri bu ularning lingvodidaktik tavsifi ya'ni aforizmlarning tilni ona tili va chet tili sifatida o'qitishdagi o'rnini aniqlashdan iboratdir [2].

Aforizm tushunchasini idrok etish, uning madaniy va tarixiy kelib chiqishiga, shuningdek, tadqiqotchining tadqiq etish uslubiga qarab farq qilishi mumkin. Har bir muallif aforizmni o'ziga xos ta'riflaydi. Turli olimlar tomonidan taklif qilingan juda ko'p ta'riflar mavjud. Ba'zilar aforizmni qisqa, ammo mazmunan chuqur fikr sifatida tavsiflasa, boshqalari, bu birinchi navbatda, o'ziga xoslikka moyil bo'lgan murakkab uslubdagi g'ayrioddiy fikr deb hisoblashadi [3].

Umuminsoniy ma'noga ega bo'lgan aforizmlar talabalarga xorijiy tillarni madaniy jihatdan o'rgatishga yordam beradi. Aforizm - bu "umumlashtirilgan, to'liq fikrni ixcham shaklda ifoda etuvchi hikmatli so'z" bo'lib, uning ingliz tilidagi izohi ham xuddi shunday ma'no kasb etadi – "a short saying stating a general truth" ("umum haqiqatni anglatuvchi qisqa mazmundagi hikmatli so'z") [4]. Shuni ta'kidlash kerakki, biror bir xorijiy tilni va xorijiy mamlakat madaniyatini o'rganuvchilar uchun deyarli har bir aforizm xalq ijodiyotining kichik durdonasi bo'lib, u milliy badiiylikni, biror bir tasvirdagi voqelikni, xalqning o'ziga xos yashash sharoitlarini aks ettiradigan falsafiy tushunchasidir. Amerikalik yozuvchi Jeyms Giri o'zining "World in a Phrase: A Brief History of The Aphorism" kitobida aforizmning beshta qonunini belgilaydi:

1. Aforizm qisqa bo'lishi kerak;
2. Aforizm aniq bo'lishi kerak;
3. Aforizm shaxsiy bo'lishi kerak;
4. Aforizm kutilmagan burilish yasashi kerak;
5. Aforizm falsafiy ma'no kasb etishi kerak.

Aforizm mustaqil qaror, hukmni ifodalash vositasi sifatida turli mazmunda asrlar davomida diniy kitoblarda (Qur'oni Karim, Injil), qo'lyozmalarda (Gerakl, Gippokrat), satirik asarlarda (Martial, Esop), axloqiy (Fransua Lorashfuko, Jan de Labryuyer) va falsafiy (Paskal, Shopengauer, Siseron) fikrlar jamlangan kitoblarda qo'llanilgan [5]. Rus olimlari Y.M.Vereshagin, V.G Kostomarov ko'plab aforizmlar inson dunyoqarashini shakllantirishga ta'sir qilish qobiliyatiga ega deb ta'kidlaganlar [6]. Aforizmlar xorijiy tillarni o'qitishda muhim til vositasi sifatida qo'llash, oliy o'quv yurtlaridagi talabalarga o'quv mashg'ulotlari jarayonida jonli dialoglarni amalga oshirish,

grammatika, sintaksis va frazeologiya haqida ma'lumotlar olish imkonini beradi. Aforizmlarni bilish talabalarning nutqni to'g'ri anglashlariga ko'maklashadi va bu o'z navbatida esa suhbatdoshlari bilan yetarli darajada muloqot qila oladigan muhitni yaratadi. Aynan shu narsa suhbat qanchalik muvaffaqiyatli bo'lishini va maqsadlarga qanday erishilishini belgilaydi. Aforizmlarning asosiy muammolarini tadqiq etish bilan shug'ullangan mashhur tilshunos olimlar T. N. Fedorenko va L. I. Sokolskayalarning "Aforistika" asarida aforizmlarga quyidagi ta'rif berilgan: "Aforizmlar ma'lum bir muallifga tegishli bo'lgan, majoziy va eslab qolish oson bo'lgan shaklda tuzilgan qisqa, mazmuni chuqur va semantik jihatdan to'liq hukmlar deb ataladi" [7]. Rus olimi A.P.Babushkin aforizmlarda ko'pincha bir qancha stilistik vositalar qo'llanilishini ta'kidlagan. Bularga quyidagilar kiradi: - shaklning soddaligi va muvozanatini ifodalovchi takrorlashlar; - qisqalilik va ixchamlilik; - metafora [8].

Xorijiy tillarni o'qitishda vizual vositalar o'rganilayotgan til mamlakatiga xos materialni tasvirlash uchun, muloqot qilishga bevosita imkon yaratadigan vaziyatlarni taqdim etish uchun ishlatiladi. Hech shubha yo'qki, real manbalar talabalarga ma'lum bo'lmagan voqelikning rang-barang tasvirini, shuningdek, xorijiy tillardagi iboralarni tushunishni osonlashtiradigan illyustratsiyalarni berishga imkon beradi [1]. Xorijiy tillarni o'rganish jarayonida autentik (haqiqiy) matnlarni o'qish va tahlil qilish talabalarga madaniyatning o'ziga xos xususiyatlari bilan tanishish, xalq mentalitetining milliylligini tushunish, o'z mamlakatlari va o'rganilayotgan til mamlakatlarining turmush tarzi, urf-odatlarini va an'analarini taqqoslashga, bu esa o'z navbatida tanqidiy fikrlash mahoratini oshirishga imkon beradi.

Zamonaviy dinamik dunyoda ko'plab hayotiy jarayonlarning tezlashishi va integratsiyasi ma'lumotlarning tez o'sishini qayd etmoqda. Bunday vaziyatda aforizmlarni o'rganish jarayoni va ulardan xorijiy tillarini o'qitishda amaliy foydalanish imkoniyatlari jadal rivojlanib, bu jarayon jamiyatning rivojlanishi va ilmiy-texnik taraqqiyot bilan bevosita bog'liqdir. Aforizm tilning asosiy tarkibiy qismlaridan biri bo'lib, eng mazmunli nutq vositasidir. Aforistik birliklarni o'rganishning eng muhim jihatlaridan biri bu ularning lingvodidaktik tavsifi ya'ni aforizmlarning tilni ona tili va chet tili sifatida o'qitishdagi o'rnini aniqlashdan iboratdir [2].

Aforizm tushunchasini idrok etish, uning madaniy va tarixiy kelib chiqishiga, shuningdek, tadqiqotchining tadqiq etish uslubiga qarab farq qilishi mumkin. Har bir muallif aforizmni o'ziga xos ta'riflaydi. Turli olimlar tomonidan taklif qilingan juda ko'p ta'riflar mavjud. Ba'zilar aforizmni qisqa, ammo mazmunan chuqur fikr sifatida tavsiflasa, boshqalari, bu birinchi navbatda, o'ziga xoslikka moyil bo'lgan murakkab uslubdagi g'ayrioddiy fikr deb hisoblashadi [3].

Umuminsoniy ma'noga ega bo'lgan aforizmlar talabalarga xorijiy tillarni madaniy jihatdan o'rgatishga yordam beradi. Aforizm - bu "umumlashtirilgan, to'liq fikrni ixcham shaklda ifoda etuvchi hikmatli so'z" bo'lib, uning ingliz tilidagi izohi ham xuddi shunday ma'no kasb etadi - "a short saying stating a general truth" ("umum haqiqatni anglatuvchi qisqa mazmundagi hikmatli so'z") [4]. Shuni ta'kidlash kerakki, biror bir xorijiy tilni va xorijiy mamlakat madaniyatini o'rganuvchilar uchun deyarli har bir aforizm xalq ijodiyotining kichik durdonasi bo'lib, u milliy badiiylikni, biror bir tasvirdagi voqelikni, xalqning o'ziga xos yashash sharoitlarini aks ettiradigan falsafiy tushunchasidir. Amerikalik yozuvchi Jeyms Giri o'zining "World in a Phrase: A Brief History of The Aphorism" kitobida aforizmning beshta qonunini belgilaydi:


1. Aforizm qisqa bo'lishi kerak;
2. Aforizm aniq bo'lishi kerak;
3. Aforizm shaxsiy bo'lishi kerak;
4. Aforizm kutilmagan burilish yasashi kerak;
5. Aforizm falsafiy ma'no kasb etishi kerak.

Aforizm mustaqil qaror, hukmni ifodalash vositasi sifatida turli mazmunda asrlar davomida diniy kitoblarda (Qur'oni Karim, Injil), qo'lyozmalarda (Gerakl, Gippokrat), satirik asarlarda (Martial, Esop), axloqiy (Fransua Lorashfuko, Jan de Labryuyer) va falsafiy (Paskal, Shopengauer, Siseron) fikrlar jamlangan kitoblarda qo'llanilgan [5]. Rus olimlari Y.M.Vereshagin, V.G Kostomarov ko'plab aforizmlar inson dunyoqarashini shakllantirishga ta'sir qilish qobiliyatiga ega deb ta'kidlaganlar [6]. Aforizmlar xorijiy tillarni o'qitishda muhim til vositasi sifatida qo'llash, oliy

o'quv yurtlaridagi talabalarga o'quv mashg'ulotlari jarayonida jonli dialoglarni amalga oshirish, grammatika, sintaksis va frazeologiya haqida ma'lumotlar olish imkonini beradi. Aforizmlarni bilish talabalarning nutqni to'g'ri anglashlariga ko'maklashadi va bu o'z navbatida esa suhbatdoshlari bilan yetarli darajada muloqot qila oladigan muhitni yaratadi. Aynan shu narsa suhbat qanchalik muvaffaqiyatli bo'lishini va maqsadlarga qanday erishilishini belgilaydi. Aforizmlarning asosiy muammolarini tadqiq etish bilan shug'ullangan mashhur tilshunos olimlar T. N. Fedorenko va L. I. Sokolskayalarning "Aforistika" asarida aforizmlarga quyidagi ta'rif berilgan: "Aforizmlar ma'lum bir muallifga tegishli bo'lgan, majoziy va eslab qolish oson bo'lgan shaklda tuzilgan qisqa, mazmuni chuqur va semantik jihatdan to'liq hukmlar deb ataladi" [7]. Rus olimi A.P.Babushkin aforizmlarda ko'pincha bir qancha stilistik vositalar qo'llanilishini ta'kidlagan. Bularga quyidagilar kiradi: - shaklning soddaligi va muvozanatini ifodalovchi takrorlashlar; - qisqalilik va ixchamlilik; - metafora [8].

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yhati.

1. AKHMEDOVA, G. Y. (2022). VISUAL AIDS IN THE PROCESS OF LEARNING ENGLISH. In Школа молодых новаторов (pp. 237-240).
2. Mustafo, O., & Gulizebo, A. (2021). USING WEBINARS IN LEARNING FOREIGN LANGUAGES. DEVELOPMENT ISSUES OF INNOVATIVE ECONOMY IN THE AGRICULTURAL SECTOR, 398.
3. AKHMEDOVA, G. Y. (2021). Motivation and its role in teaching a foreign language. In Молодежь и наука: шаг к успеху (pp. 292-294).
4. Yakubovna, A. G. (2022). TEACHING BUSINESS IDIOMS IN THE STUDY OF THE ENGLISH LANGUAGE. Current Issues of Bio Economics and Digitalization in the Sustainable Development of Regions, 294-298.
5. Мирсанов, Б. М. (2018). ПСИХОЛИНГВИСТИЧЕСКИЕ ОСНОВЫ ВТОРИЧНОГО ИМЕНИ. Актуальные научные исследования в современном мире, (5-4), 21-24.
6. Иванов, Е. Е. Актуальные проблемы теоретического и прикладного описания афористических единиц языка и речи / Е. Е. Иванов // Итоги научных исследований ученых МГУ имени А. А. Кулешова 2016 г. : материалы науч.- метод. конф., Могилев, 25 января - 1 февраля 2017 г. / Могилевский гос. ун-т им. А. А. Кулешова ; под ред. Е. К. Сычовой. - Могилев, 2017. - С. 101-103.
7. Ахмедова, Г. (2020). Чет тилини ўргатиш жараёнида мотивациянинг ўрни. Иностранная филология: язык, литература, образование, (3 (76)), 117- 121.



Valijon Qahramonov

Samarqand viloyati Qo'shrabot tumani

40-son maktabning ona tili va adabiyot fani o'qituvchisi

MUMTOZ SHE'RIYAT VA MULOQOT JARAYONIDA MUROJAAT SO'ZLARINING TA'SIRCHANLIKNI OSHIRISHDAGI AHAMIYATI



<http://dx.doi.org/10.26739/2181-0850-2024-1-4>

ANNOTATSIYA

Murojaat shakllari insonlar o'rtasidagi ijtimoiy munosabatni, yosh darajasini ifodalaydi. Murojaat shakli sifatida qo'llangan so'z va so'zlar qo'shilmasida ma'lum bir davr ijtimoiy mazmuni ham aks etadi. Ular orqali biz nutq qaratilgan obyekt haqida ma'lumotlar olamiz. Ayniqsa, so'zlovchining unga bo'lgan subyektiv munosabati bahosini bilishimiz mumkin. Ushbu maqolada mumtoz she'riyat va muloqot jarayonida murojaat so'zlarining ta'sirchanlikni oshirishdagi ahamiyati haqida mulohaza yuritilgan.

Kalit so'zlar: murojaat so'zlar, undalma, o'zbek tili, tahlil, nutq, so'z, til, talaffuz, muloqot, Navoiy, Usmon Azim, shakl, dialog, obraz, chaqiriq, ovoz.

Валиджон Кахрамонов

Кошрабатский район Самаркандской области

Учитель родного языка и литературы школы №40

КЛАССИЧЕСКАЯ ПОЭЗИЯ И ЗНАЧЕНИЕ СЛОВ ОБРАЩЕНИЯ В ПРОЦЕССЕ ОБЩЕНИЯ ДЛЯ ПОВЫШЕНИЯ ЭФФЕКТИВНОСТИ

АННОТАЦИЯ

Формы обращения отражают социальные отношения между людьми, возрастной уровень. В сочетании слов и выражений, употребляемых в качестве формы обращения, отражается и социальное содержание определенного периода. Через них мы получаем информацию об объекте, на который направлена речь. В частности, мы можем знать оценку субъективного отношения говорящего к нему. В этой статье рассматривается классическая поэзия и важность слов обращения в процессе общения для повышения эффективности.

Ключевые слова: обращение, восклицание, узбекский язык, анализ, речь, слово, язык, произношение, диалог, Навои, Осман Азим, форма, диалог, образ, вызов, голос.

Valijan Qahramanov

Qushrabat district, Samarkand region

Teacher of native language and literature of School № 40

THE IMPORTANCE OF ADDRESS WORDS IN INCREASING EFFECTIVITY IN THE PROCESS OF CLASSICAL POETRY AND COMMUNICATION

ABSTRACT

Forms of Appeal represent the social relationship between people and the level of age. The addition of words and words applied as a reference also reflects a specific period's social content. Through them, we get information about the object to which speech is directed. In particular, we can know the assessment of the subjective attitude of the speaker towards him. This article reflects on the importance of colloquial words in increasing affectivity in classical poetry and communication.

Keywords: address words, exclamation, Uzbek language, analysis, speech, word, language, pronunciation, communication, Navoi, Usman Azim, form, dialogue, image, call, voice.

Til va uning birliklari kishilar tomonidan nutqda qo'llanganda, talaffuz etilganda yuzaga chiqadi va shu tufayli til o'zining asosiy vazifasini – aloqa vositasi bo'lish funksiyasini bajaradi. Lekin tilning funksiyasi bu bilan chegaralanib qolmaydi. Uning barcha funksiyalari katta ehtiyoj tufayli ana shu ehtiyojga javob tarzida yuzaga kelgan. Nafaqat vazifalar, tilning o'zi ham ehtiyoj mahsulidir, uning "vujudga kelishi insoniyatning ichki ehtiyoji bilan shartlangan". Kishilar bir-biriga til birliklaridan foydalanib fikr uzatganlar, o'zlarining turli munosabatlarini bildirganlar, ehtiyojlarini qondirganlar. Bu jarayonda – munosabat bildirish, fikr uzatish, qabul qilish jarayonlarida – albatta, bir-birlariga murojaat qilingan. Murojaatning o'zi ham ana shu tarixiy jarayon va oqimning mahsuli sifatida shakllangan. Chunki "...inson qayerda paydo bo'lmasin, insonligicha qoladi, u boshqa o'zi singarilar bilan muloqotga kirishadi, institutlar tashkil etadi, qonunlar yaratadi.

Jamiyat a'zolari, insonlar aloqa-muloqot vositasi bo'lgan tildan o'z maqsad muddaolarini, istak, orzu-xohishlarini namoyon qilish orqali foydalanganliklari holda boshqalar bilan ma'lumot-axborot almashadi, muloqot qiladi va bu hodisa hayot qonun-qoidalarini muvozanatda tutib turadi.

Ma'lumot-axborot almashinish jarayoni, ya'ni muloqot I shaxs-so'zlovchi va II shaxs-tinglovchi o'rtasida o'zaro dialog, polilog (ba'zan monolog ko'rinishida so'zlovchining o'ziga murojaati) shaklida amalga oshadi va uni mazmunli, chiroyli, to'g'ri amalga oshirish uchun turli unsurlardan: mimika (yuz harakati, qo'l harakati), grammatik vositalar (morfema, xususan, kichraytirish-erkalash, ko'plik-hurmat morfemalari), leksik birliklar (ko'chma ma'noli, bo'yoqdor so'zlar)dan unumli foydalanish muhim ahamiyatga egadir. Shuni aytish kerakki, muloqot uchun muhim bo'lgan vositalardan yana biri, shubhasiz, murojaat vositalaridir. Umumiy muloqot jarayoni(kontekst)ning qanday boshlanib, qanday tugashida shaxslararo murojaat so'zning o'zni muhim. Murojaat vositalari bevosita so'zlovchining maqsad-muddaosini ifodalab, uning kayfiyatiga hamohang tarzda namoyon bo'ladi.

Odatda, murojaat shakli haqida gapirilganda, eng avval, tinglovchi nazarda tutiladi. Aslida bu murojaatning ikkinchi obyektidir. Tinglovchi ham ijtimoiy – mantiqiy obyekt sifatida, ham lingvistik obyekt sifatida bir-biriga to'la mos tushadi: tinglovchi – sen, ya'ni ijtimoiy shaxs sifatida – o'zga. Buning nutqdagi ifodalanishi – mantiqiy-grammatik shakllanishi ham o'zga, ya'ni ikkinchi shaxs, birlik yoki ko'plik. Bu ijtimoiy o'zga – grammatik ikkinchi shaxs so'zlovchining ziddi bo'lib, u fikr qabul qiluvchi sifatidagi ijtimoiy figuradir – nutq va u orqali ifodalanayotgan fikr unga qaratilgan.

Bugungi kunda, muloqot madaniyatini shakllantirishga alohida e'tibor berilayotgan bir sharoitda, muloqot jarayonida foydalanilayotgan murojaat vosita va shakllarini, xususan, rasmiy murojaatlarni adabiy til normalariga to'liq amal qilgani holda uni o'rganish, tekshirish va amaliy hayotga tadbiiq etish nihoyatda muhimdir. Muloqot yoxud kontekstda murojaat qiluvchi va uni qabul qiluvchi shaxs munosabati, nutq sharoiti va nutq vaziyati nuqtayi nazardan rasmiy murojaatlarni o'rganish dolzarb

masalalardan hisoblanadi. Shu jihatdan, zamonaviy tilshunoslik nuqtai nazaridan kelib chiqib, tilni har tomonlama o'rganish va u orqali insonlarga manfaat keltirish jihatidan so'zlashuv nutqida juda ahamiyatli bo'lgan murojaatlarni tadqiq etishga katta ehtiyoj sezilmoqda. Ayniqsa, mustaqil davlatimizning istiqloli va istiqboli mustahkamlanib borayotgan hozirgi davrimizda rasmiy

murojaatlar yuzasidan tekshirishlar olib borish nafaqat, murojaat vositalarining keng ko‘lamda o‘rganishini ta‘minlaydi, balki rasmiy-idoraviy uslubning imkoniyatlarini yuqori darajada ochib beradi.

Shuni aytish kerakki, sotsiolingvistik atama bo‘lgan *murojaatlar* tilshunoslikning sintaksis bo‘limida *undalma* nomi ostida anchayin to‘liq tadqiq qilingan, o‘rganilgan.

O‘zbek tilshunosligida undalma va uning xususiyatlari yuzasidan bir qator ilmiy ishlar amalga oshirilgan bo‘lib, ularda asosan, undalmaning lingvistik xususiyatlari ochib berilgan. Chunonchi, A. Fitrat 1924- yilda nashr etilgan “Nahv” (Sintaksis) asarida gap turlarini ajrata turib, “undashli gap” atamasi ostida undalmali gaplarni ajratadi va undalmaga quyidagicha ta‘rif beradi: “Undashli gap – gap kimgadir qaratib aytilgan bo‘lsa, shuning oti gapning bosh tomonida yo orasida, yo o‘rtasida aytilsa, ana shunday gapga undashli gap deyiladi. Shu otning o‘zi undash oti bo‘ladir:

Yigitlar, qo‘lingizdan kelgancha bilimingizni orttiring.

Rus tilida, o‘zbek va boshqa turkiy tillarda yaratilgan ilmiy ishlarda murojaat so‘zlari, ya‘ni chaqirish, undash ma‘nosidagi so‘zlar *chaqiriq so‘z*, *chaqiriq forma*, *chaqirish kelishik*, *vokativ forma*, *vokativ kelishik*, *undash kelishik*, *murojaat so‘zlar* kabi turli-tuman terminlar bilan yuritilgan.

Ijtimoiy tilshunoslik nuqtayi nazaridan qaraganda, ko‘pgina ishlarda “*undalma*” termini o‘rnida “*murojaat shakllari*” termini qo‘llanilmoqda. Mustaqillik yillarida “*murojaat*” termini faol qo‘llanilib, u ko‘proq sotsiolingvistikaning o‘rganish obyekti tashkil qiladi. Bundan tashqari, murojaat shakllari termini undalma terminiga nisbatan keng qamrovli hisoblanadi.

“Murojaat” so‘ziga izohli lug‘atda shunday ta‘rif beriladi:

- ko‘rib chiqish, taqqoslash;
- biror narsa so‘rash, ishni qayta ko‘rish;
- birovga qarata aytilgan gap, qilingan da‘vat, chaqiriq.

Ko‘rinib turibdiki, murojaat, asosan, kommunikantlar o‘rtasida tinglovchi diqqatini tortish uchun xizmat qiladi.

Murojaat shakllarini ijtimoiy-lisoniy jihatidan tahlil qilganda, u adresant va adresat o‘rtasida aloqani vujudga keltirish bilan bir qatorda, suhbatning qanday davom etishini, kommunikantlarning bir-biriga bo‘lgan turli munosabatini, hurmati, yoshi, jinsi, shu bilan birga, milliy madaniyatini ham namoyon etadi.

Yangi davr adabiyotida shoir o‘z joniga murojaat qilishi poetik vazifa bajaradi, muallifning g‘oyaviy maqsadini ochish uchun detal sifatida xizmat qiladi. Badiiy matnda murojaat, grammatik ifoda bilan aytganda, undalma faqat muayyan shaxs, narsa, hodisa, umuman, tegishli nutq qaratilgan obyektni ishoralash va ko‘rsatish uchungina xizmat qilmaydi. Har qanday murojaatning asosiy va birlamchi vazifasi apellyativlik, ya‘ni chaqirish mazmuni bo‘lsa-da, bu vazifa badiiy matnda kuchsizlanishi va unga qo‘shimcha ravishda undalma yana boshqa vazifalarning ifodachisiga ham aylanishi mumkin. Shu sababdan, poetik sintaksis izlanuvchilari undalmaning uch asosiy turini e‘tirof etganlar:

1) adresatsiya va xarakterizatsiya vazifalarini o‘zida birlashtirgan undalmalar (adresatni tavsiflovchi undalmalar);

2) adresatsiya va nominatsiya vazifalarini o‘zida birlashtiruvchi undalmalar (undalma-nominatsiyalar);

3) uch vazifasining barchasi (adresatsiya, nominatsiya va xarakterzatsiya)ni mujassamlashtirgan undalmalar (undalma pozitsiyasidagi fraza-nominatsiyalar). Bunday undalmalar poetik sintaksisning o‘ziga xos o‘tkir vositasiga aylanadi.

O‘zbek poetik matnlarida ushbu tur undalmalarning betakror namunalari mavjud. Poetik matnda murojaat qilinayotgan obyektni ko‘rsatish barobarida uni ayni paytda tavsiflovchi undalmalar badiiy fikr sig‘imining yanada kengayishi uchun xizmat qiladi. Masalan:

*Og‘ir yigit, sening go‘zal, nurli ko‘zingda,
Bu millatning saodatin, baxtin o‘qudim.
O‘ylashingda, turishingda hamda o‘zungda,
Bu yurt uchun qutulishning borlig‘in ko‘rdim.
(Fitrat. “O‘gut”)*

Bu parchadagi *og'ir yigit* undalmasi murojaat obyekti bo'lgan shaxsni faqat nomlaydigina emas, balki uni tavsiflaydi ham, ya'ni bir paytning o'zida mazkur birlik ikki vazifani bajaradi. *Og'ir yigitga* qaratilgan bu murojaatda bir shoir iltijosi, da'vatigina emas, bu haroratli ovozda kamida bir millatning asriy istagi, qalb chaqirig'i yangraydi.

Murojaat shakli xoh ochiq, xoh yashirin qo'llangan bo'lsin, undan ko'zlangan asosiy maqsad murojaat obyektiga ishora qilishdan iboratdir. U shoir murojaat yo'llagan adresat o'rtasida kommunikativ munosabatni o'rnatishga xizmat qiladi. Shu ma'noda, she'riy nutqda *ey* murojaat shakli har doim dialogizatsiya vazifasini bajaradi. Dialogizatsiya dialogiya (og'zaki dialogik nutq nazarda tutilyapti) bilan chambarchas bog'liq va u dialogik nutq jarayonida namoyon bo'ladi. Dialogik nutqda dialogik elementlar qancha ko'p va ochiq qo'llansa, kommunikatsiya jarayoni shuncha samarali bo'ladi.

Tinglovchi uchun shoir pozitsiyasi — murojaat shakli orqali kimni yoki nimani nazarda tutgani ba'zan aniq, ba'zan noaniq — tushunarsiz bo'lishi mumkin, lekin hech qachon “mavhum” emas. Chunki shoir har doim poetik axborotning tushunarli bo'lishini nazarda tutadi. *Ey* undovi bilan shakllangan murojaat shakli ma'nosini to'g'ri anglash she'rxon zimmasiga yuklanar ekan, buning uchun undan maxsus tayyorgarlik, maxsus bilim va badiiy tafakkur tiniqligi talab etiladi. Murojaat shakli ochiq, tushunarli bo'lsa, she'rxon uchun uning mutolaasi va anglamida muammo deyarli kuzatilmaydi.

Alisher Navoiy lirik asarlaridagi “*ey*” murojaat shaklini (undalmasini) ayni shu xususiyatiga ko'ra tasniflaganda dialogizatsiyaning “kuchsiz” turiga kiritish o'rinli. Ya'ni uning — ichki adresatning jismoniy faollashishi, diqqatni jalb qilishi nazarda tutilmaydi (buning iloji ham yo'q). Chunki shoir murojaat so'zlariga badiiy obraz va badiiy tasvir yaratish vositasi sifatida qaraydi. Masalan:

*Ey mug'anniylar, Navoiy mast edi — kech uyg'onur,
Ani uyg'otmoqqa bir dilkash tarannum aylangiz.*

Baytda lirik qahramon mug'anniylarga murojaat qilib ishq sharobidan mast bo'lib uxlab qolgan Navoiyni uyg'otish uchun dilni o'rtaydigan bir navo tarannum qilishni va uni uyg'otishni so'ramoqda. Mazkur baytda murojaat shakli — *ey mug'anniylar* — murojaat obyekti sifatida qo'llangan. *Mug'anniylar — sizlar tarannum aylang; Mug'anniy — sen tarannum aylagin.* Mazkur baytda *ey* undov so'zidan so'ng murojaat obyekti ikkinchi shaxs — suhbatdosh aniq ifodalangan.

Ta'kidlash joizki, hozirgi zamon o'zbek she'riyatida ham “abstrakt murojaat shakli konkretlashadi — obyektini ko'rsatuvchi izoh mavjud bo'ladi”, ammo ularning qo'llanilishida kuchli farq kuzatiladi. Hozirgi o'zbek she'riyatida “abstrakt undovlarni kontretlashtiruvchi izoh qurilmalar”ning ikkinchi va uchinchi shaxsda qo'llanishi ko'proq kuzatilishi qayd qilinadi:

*Xayr, ey, bearmon kezgan qirlarim,
Xayr, ey, yiroqqa qochgan so'qmoqlar,
Xayr, ey, maskanim — tuqqan yerlarim,
Xayr, ey, sahrolar, xayr, ey, tog'lar*

Usmon Azim ijodini kuzatar ekanmiz, ijodkorning barcha mavzuda o'ziga xos fikri, dunyoqarashi bor ekanligini ko'ramiz. Uning faqat o'zigagina xos bo'lgan shunday bo'yoqlar borki, undan anglashilgan ma'no faqat Usmon Azimga tegishli o'ziga xoslik kasb etadi. Tabiatda mavjud jamiki jonzotlarning yaratguvchisi Allohga murojaat adib ijodida ham alohida o'rin tutadigan mavzulardan biridir. Chunki ruhiyat va ichki kechinmalar haqida yozilgan asarlarda inson qalbining tubidagi orzu, istak, najot, umid qilish Allohga qaratilgan bo'ladi. Usmon Azim ijodida esa ichki kechinmalarining ruhiyatga bog'liq holda ifoda etilishi asosiy o'rin tutadi. Shoirning bir she'rida shunday misralarni uchratishimiz mumkin:

*Bu tuning juda dahshat —
uxlasa mangu qoladiganday bu chog'.
... Bergan madadingga, xudoyim, rahmat —
Hech bo'lmasa itlaring uyg'oq.*

Ushbu she'rni tahlil qilar ekanmiz bunda Allohga murojaat qilish vaziyatida iltimos ma'nosi ham namoyon bo'ladi. Ya'ni “mavjud vaziyatni yolg'iz hal qiluvchisi sensan, barchasiga o'zing

hakamlik qilgin” degan ilinj mavjud. Xudoyim soʻzidagi -im egalik, tegishlilikni koʻrsatuvchi qoʻshimchaning ishlatilishi ham xudoni oʻziga yaqin olish, unga yolvorish kabi mazmunni ham ifodalaydi. Bunda birinchi koʻrinish, Allohga “xudo” soʻzi vositasida murojaat qilinmoqda. Adibning yana boshqa bir sheʼrida:

*Yo, Alloh,
Yaqinmi oxirat roʻzi?
Mitti yuragi yorilguday bu dam:
Jismi charchadimi – nima boʻlyapti oʻzi?
Tuproqqa qaytgisi kelyaptimi, egam.*

Mazkur sheʼrda esa “Alloh”, “egam” soʻzlari vositasida Allohga murojaat etilmoqda. Mazmunga eʼtibor qaratadigan boʻlsak, soʻrash, hayron qolish ottenklari sezilib turibdi. Qush bilan ifodalanayotgan maʼno esa, faqatgina bu beozor jonivorgagina emas, insonga ham tegishli ekanligini tushunish mumkin. Shuni aytib oʻtish kerakki, Usmon Azim ijodida obrazlar masalasiga kuchli eʼtibor qaratiladi. Misol uchun, jonivorlarni inson oʻrnida tavsiflash, yil fasllarini insonning umriga mengzash, kun va tunni yaxshi va yomon insonlarga qiyoslash shular jumlasidandir. Yana murojaat vositalariga qaytsak. Shoir ijodidan oʻrin olgan quyidagi sheʼrda Allohga murojaat qilish uchun ishlatiladigan “tangri” soʻzi vositasidan foydalanilgan:

*Tangrim! Bahoringning husni ziyoda,
Termulsam, koʻkarar tanimda gʻayrat!
Oqibat ne qolar mendan dunyoda?–
Sening ijodingdan nurlangan hayrat...*

Navbatda keltirmoqchi boʻlgan sheʼrimiz ham Usmon Azim ijodiga mansub boʻlib, Allohga murojaat qilish uchun qoʻllaniladigan yana bir vosita ishtirok etgan:

*O, sen haqda oʻylarim nafas kabi har on jondir jonimga.
Sensiz qolgan bu jahonimda qanotsizlik bilan tushim bahs...
Parvardigor, sudralib emas, uchib borgim kelar yoningga.*

Jamiyat kundan-kunga rivojlanayotgan bir paytda tilimiz, undagi birliklar ham oʻzgarib bormoqda. Xususan, murojaat shakllari ham yangilanib, zamonga moslashib bormoqda. Bu hodisa badiiy adabiyotimizda ham namoyon boʻlmoqda.


Tilning asosiy funksiyasi, qator vazifalari ham u yoki bu darajada, albatta, murojaat bilan bogʻlanadi. Masalan, apellyativ vazifa – chaqiruv bevosita murojaat bilan aloqadordir. Chaqiruv tinglovchiga qaratilgan boʻladi va bu orqali u nutqni eshitish hamda qabul qilishga chaqiriladi. Aloqa oʻrnatish funksiyasi zaminida ham murojaat bilan bogʻliq tushunchalar yotadi: bu vazifa tinglovchini xabar – maʼlumotni qabul qilishga tayyorlash, uning eʼtiborini tortish orqali bajariladi. Umuman tilning barcha vazifalari – kommunikativ, emotiv, volyuntativ, aloqa oʻrnatish – sotsiativ, reprezentativ funksiyalari soʻzlovchi va tinglovchi orasidagi turli tuman munosabatlarni ifodalaydi. Chunki til har doim fikr uzatish (bu soʻzlovchi uchun) hamda fikr qabul qilish, anglash (bu tinglovchi uchun) vositasi boʻlib kelgan.

Murojaatning mazmunan har xil shakllanishi – quvonch, qoʻrqinch, gina, iltifot, nafrat kabi maʼno ottenkalari qoʻshilgan holda ifodalanishi – eng avvalo ijtimoiy muhit va sharoitdan kelib chiqadigan munosabatga bogʻliq. Til esa ana shu munosabatni qanday boʻlsa oʻshanday, asliga mos holda roʻyobga chiqishi uchun vosita boʻladi.

Foydalanilgan adabiyotlar roʻyhati.

1. M.Qurbonova. “Oʻzbek tilida murojaat vositalarini ifodalovchi birliklar” mavzusidagi magistrlik dissertatsiyasi. Termiz., 2023
2. N.Ahmedova. Oʻzbek tilida murojaat birliklarining semantik-konnotativ tadqiqi: filol. fanlari nomz. ... diss. –Toshkent, 2008.

3. Z.Akbarova O'zbek tilida murojaat shakllari va uning lisoniy tadqiqi: filol. fanlari nomz. ... diss. –Toshkent, 2007.
4. Abdurahmonov G'., Shukurov Sh. O'zbek tilining tarixiy grammatikasi. - T., 1973.
5. Акбаров З.А. Ўзбек тилида мурожаат шакллари ва унинг лисоний тадқиқи. Филол.ф.н...дисс. — Тошкент, 2007
6. Исҳоқов Ё. Навоий поэтикаси. — Тошкент, 1983.
7. Begmatov E.B. Hozirgi o'zbek adabiy tilining leksik qatlamlari. T.: Fan:1985
8. Iskandarova Sh. O'zbek nutq odatining muloqot shakllari: fil.fan.nomz...diss. – Toshkent, 1993.
9. Alisher Navoiy asarlari tilining izohli lug'ati. III. - Toshkent: Fan, 1984.
10. O'zbek tilining izohli lug'ati. V jild. III jild. Toshkent: "O'ME", 2007.
11. O'zbek tilining izohli lug'ati, II jild. – Toshkent "O'zbekiston milliy ensiklopediyasi", 2006.
12. Axmanova O.S. Lingvistik atamalar lug'ati. M., 1966; 2-nashr. M. 1969 y.



Mansurov Ne'mat Axmedovich
Kamoliddin Behzod nomidagi MRDI dosenti.

BO'LAJAK TASVIRIY SAN'AT O'QITUVCHILARNING BADIY MAHORATLARINI RIVOJLANTIRISH MEZONLARI



<http://dx.doi.org/10.26739/2181-0850-2024-1-5>

ANNOTATSIYA

Maqola oliy ta'lim tizimida o'qituvchilarning badiiy mahoratlarini rivojlantirishning ilmiy-pedagogik masalalarini o'rganishga bag'ishlangan.

Kalit so'zlar: zamonaviy tajriba, modernizatsiyalash, oliy ta'limni rivojlantirish, kadrlarni tayyorlash, oliy ta'lim muassasalari.

Мансуров Неймат Ахмедович

доцент национального института искусства
и дизайна имени Камолитдина Бехзода

КРИТЕРИИ РАЗВИТИЯ ХУДОЖЕСТВЕННЫХ НАВЫКОВ БУДУЩИХ УЧИТЕЛЕЙ ИЗОБРАЗИТЕЛЬНОГО ИСКУССТВА

АННОТАЦИЯ

Статья посвящена исследованию научно-педагогических вопросов развития художественного мастерства преподавателей системы высшего образования.

Ключевые слова: современный опыт, модернизация, развитие высшего образования, подготовка кадров, высшие образовательные учреждения.

Mansurov Ne'mat Axmedovich

Associate Professor of the National Institute of Art
and Design named after Kamoliddin Behzod

CRITERIA FOR THE DEVELOPMENT OF ARTISTIC SKILLS OF FUTURE FINE ARTS TEACHERS

ABSTRACT

The article is devoted to the study of scientific and pedagogical issues of the development of artistic skills of teachers in the higher education system.

Keywords: modern experience, modernization, development of higher education, training of personnel, higher educational institutions.

Ma'lumki, bugungi kunda mamalakatimizdagi muhim masalalardan biri – ta'lim mazmunini o'z vaqtida modernizatsiyalash hisoblanadi. Bunda asosiy masalalardan biri so'nggi yillarda kengayib ketgan va o'quvchilarni zo'riqishga olib keladigan o'quv materiallarini to'ldirish,

